

TA'LIM TIZIMIDA PSIXOLOGIK XIZMATNI SHAKLLANTIRISH OMILLARI.

Xo'shboqov Kamoliddin Abdulatif o'g'li

TerDPI Psixologiya kafedrasi o'qituvchisi

E-mail: kamolxoshboqov1995@gmail.com

To'rayev Parda Bahtiyor o'g'li

TerDPI pedagogika va psixologiya yo'nalishi 301-guruh talabasi

Bugungi kunda ta'lismizda tarbiya jarayonida, ta'lismizning samarali faoliyatida psixologik xizmatning o'z o'mni va ahamiyati sezilarli darajada o'sib bormoqda.

Ma'lumki, zamonaviy psixologik xizmat asoslari fanining bosh maqsadi ta'lismizda tarbiya muhitidagi o'quvchilar, talabalarning individual imkoniyatlarini o'rganish hamda o'quv faoliyatining intellektual, emotsional, kognitiv, motivatsion sohadagi jihatlarini ilmiy jihatdan tekshirishdan iborat.

Hozirda psixologlar maktabgacha, umumiyoq o'rta, o'rta maxsus va oliy ta'lismizda muassasalarida, reabilitatsiya, korreksiya, rivojlantiruvchi ishlar olib bormoqda. Bolalar, o'quvchilar, yoshlar hamda aholining turli qatlamlariga tibbiy-psixologik-pedagogik yordam bermoqdalar. Ta'limga har bir jabhasida psixologik xizmat ko'rsatish xodimlari faoliyat ko'rsatib kelishmoqda. Shu o'rinda psixologik xizmatning o'zi nima?, qachondan vujudga kela boshladi, qachondan psixologik xizmatga ehtiyoj paydo bo'la boshladi degan savollar oldimizga ko'ndalang keladi.

O'zbekistonda psixologik xizmat tarkib topishining dastlabki ildizlari va intihosi asrimizning 30-yillaridagi pedologiya fani va pedologik xizmat faoliyatlariga borib taqaladi. Mazkur yillarda ta'lismizda tarbiya jarayonini tashkil etish va rivojlantirish o'quvchi va o'qituvchi faoliyati bilan bog'liq psixologik omillarga asoslangan va bu talaygina yaxshi natijalar ham bergan. Biroq, afsuski, o'sha davrda sobiq ittifoq mafkurasi va xalq ta'limi o'rtasida paydo bolgan ayrim ob'ektiv va sub'ektiv ziddiyatlar oqimi umumta'lim maktablari uchun muhim ahamiyat kasb etgan pedologik xizmat ildiziga bolta urdi va uni rasmiy tarzda yo'qqa chiqardi. Natijada, pedagogik psixologiya yo'li bilan bajariladigan barcha ishlar muktabda faqat pedagogik yondashuvlar asosidagina amalga oshirildi. Shunday bolsada, O'zbekistondagi umumta'lim tizimi bilan bog'liq izlanishlar va tadqiqotlar to'xtab qolgani yo'q. Ayniqsa, P. I. Ivanov, V. E. Chudnovskiy, M.G. Davletshin, M. Vohidovlar tomonidan ishlab chiqilgan qator ilmiy va metodik tavsiyalar muktabda psixologik xizmat tatbiqini yaratish uchun ma'lum darajada asos bo'lib keldi.

Inson tanasi parvarishga ehtiyoj sezganidek uning qalbi, ruhi ham parvarishga ehtiyoj sezadi. Inson qalbining naqoshi, buniyodkori - amaliyotchi psixolog, psixologik xizmat xodimlaridir.

Psixologik xizmat xodimlari barcha muammolarni hal qilishda bolani har tomonlama va garmonik rivojlanish vazifalariga va uning qiziqishlariga tayanadidlar. Amaliyotchi psixolog o'z faoliyatini pedagogik jamoa va ota-onalar bilan yaqin aloqada amalga oshiradilar. Psixologik xizmat o'z faoliyatida tibbiy, defektologik va boshqa xizmat turlari bilan, bola tarbiyasida yordam ko'rsatuvchi jamoatchilik xodimlari bilan yaqin aloqada ish olib boradi. Barcha mutaxassislar bilan munosabat tenglik asosida va fikrlarning bir-birini o'zaro to'ldirishi asosida quriladi.

Umumiy o'rta ta'lim tizimidagi psixologik xizmatning maqsadi-shaxsning har tomonlama garmonik kamoloti, to'laqonli psixologik taraqqiyotni ta'minlovchi qulay shart-sharoitlar yaratishdan iboratdir. Psixodiagnostik ishlar, psixoprofilaktik ishlar, psixologik korreksiya va h.k kabi psixologik ishlar olib boriladi. Shu o'rinda psixologik korreksiya ishlariga quyidagilar kiradi.

Psixologik korreksiya — psixologik xizmatning mazkur yo'nalishi psixologdan inson shaxsi va individuallagini tarkib toptirish jarayoniga faol ta'sir o'tkazishni taqoza qiladi.

Rivojlantiruvchi va psixokorreksion ishlar dasturi, o'z ichiga psixologik va pedagogik muammolarni qamrab oladi.

Korreksion faoliyatning psixologik qismi mutaxassislar tomonidan amalga oshiriladi. Mazkur ishning pedagogik jihatni esa psixologning pedagoglar, ota-onalar bilan hamkorligida o'tkaziladi va butun ma'suliyat uning zimmasiga tushadi.

— Rivojlantiruvchi va psixokorreksion ishlar psixolog tomonidan har-xil shakllarda, vaziyatlarda va holatlarda tashkil qilinadi;

— Bunda amaliy psixologning maxsus ishi, mashg'uloti ayrim bolalar, o'quvchilar bilan alohida o'tkazilishi rejallashtiriladi.

— Psixologlarning boshqa bir faoliyati maxsus ravishda amalga oshirilib, o'quvchilar guruhlariga tarbiyaviy ta'sir o'tkazishga yo'naltirilgan bo'ladi,

— Bu kabi ishlarni ota-onalar, pedagogik jamoa ishtirokida tarbiyaviy tadbirlar tarzida olib borish nazarda tutiladi,

— Rivojlantiruvchi va psixokorreksion ishlar dasturini shunday tuzish kerakki, unda korrekston ishga jalb qilinuvchilar guruhining qadriyatga yo'nalganligi, etnopsixologik va etnomadaniyat xususiyatlari o'z aksini topsin.

Korreksion ishlar ma'lum tartibda, ilmiy tanlov asosida, muayyan seans bo'yicha o'tkazilishi shart.

Bunda emostional zo’riqishga uchragan shaxs millati, yoshi, jinsi, individual tipologik xususiyati, ta’sirlanish darajasi hisobga olinishi kerak.

Tuzatish ishlari mashg‘ulot, faoliyat, kasb xususiyatiga mos, mutanosib bo’lishi ta’sir o’tkazish samaradorligini oshiradi. Unda yapon uslublarini qo’llash ham zarur ma’lumotlar to’plash va tanglikni yo’qotish imkoniyatini yaratadi.

Psixologik xizmatning ushbu yo’nalishida alohida ahamiyat kasb etadigan narsa – bu bolalar, o’quvchilar o’sishida (rivojlanishida) kechikish (orqada qolish), ularda xulqning buzilishi, ta’limda o’zlashtirishning yomonlashuvi bo’lib hisoblanadi.

Xulosa o’rnida shuni aytib o’tish joizki, Bugungi kunda aholiga , ta’lim maskandagi o’quvchilar, o’qituvchilar, xodimlarga psixologik xizmat ko’rsatish psixologik xizmat xodimlarining burchi va vazifasidir. Bugungi kunda ta’lim jarayonida aholiga sifatli psixologik xizmat ko’rsatish yo’llari, usullari yanada rivojlantirilmoxda, buning uchun psixologik xizmat xodimlari o’z kasbining mohiyatini chuqur anglagan holda, o’z kasbining bilimdoni bo’lish kabi ma’suliyatni his qilgan holda yondoshishlari talab etiladi.

ADABIYOTLAR

1. Raxmanov.A Jumanazarov. Yo. Akbarov.S “YOSH DAVRLARI PSIXOLOGIYASI” Muammoli maruzalar matni Namangan 2009
2. Zufarova M.E.UMUMIY PSIXOLOGIYA O’zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti TOSHKENT 2010
3. Pedagogika G‘G‘A.Q.Munavvarovning tahriri ostida . – Toshkent, O’qituvchi, 1996.
4. Podlaso’y I.P. Pedagogika. Novo’y kurs. V 2 kn. . Kn. 1. – Moskva, Vlados1997.
5. Tursunov I., Nishonaliyev U. Pedagogika kursi. –T.: O’qituvchi, 1999.
6. G‘oziyev E. Psixologiya (Yosh davrlari psixologiyasi). _T.: O’qituvchi, 1994.
7. Nishanova.Z.T. “PSIXOLOGIK XIZMAT”, –T.:2007. 8. Safaev N.S., Mirashirova N.A., Odilova N.G. “Umumiy psixologiya nazariyasi va amaliyoti”, –T.:2013.
8. Kamoliddin Khushbokov. (2023). PSYCHOLOGICAL COMPONENTS OF COGNITIVE DEVELOPMENT OF PRESCHOOL CHILDREN. Academia Science Repository, 4(04), 165–170.
9. Khushbokov, K. (2023). PSYCHOLOGICAL DESCRIPTION OF ACHIEVEMENTS AND PROSPECTIVE TASKS IN THE PRESCHOOL EDUCATION SYSTEM. Academia Repository, 2(11), 54-59.
10. Xo’shboqov Kamoliddin Abdulatif O‘G‘Li (2022). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA BILISH FAOLLIGINI RIVOJLANTIRISH. Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy журнали, 1 (11), 131-136.
11. KHUSHBOKOV, K. (2023). FORMATION OF COGNITIVE ACTIVITY IN PRESCHOOL CHILDREN. World Bulletin of Social Sciences, 20, 86-89.